



CHORVACHILIK VA PARRANDACHILIKNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 5-avgust kuni chorvachilik va parrandachilik tarmoqlarini rivojlantirish, go‘st va sut mahsulotlari ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda sohaga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda aholi soni va turizm oqimining o‘shishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni ham oshirmoqda. Hozirgi kunda go‘stga bo‘lgan yillik talab 2 million 150 ming tonnani, ishlab chiqarish hajmi esa 1 million 600 ming tonnani tashkil etmoqda.

Shu bois, taqdimotda 2026-2028-yillarda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan kompleks choralar muhokama qilindi.

Faoliyat yuritmayotgan korxonalarni tiklash, chorvachilikka ixtisoslashgan tumanlarni qo‘llab-quvvatlash, aholi xonadonlarida yengil konstruksiyali molxonalar qurish va yangi loyihalarni amalga oshirish hisobiga qo‘shimcha 190 ming tonna go‘st ishlab chiqarish imkoniyati mavjudligi qayd etildi.

Jumladan, faoliyati to‘xtab qolgan 103 ta chorvachilik korxonasini sog‘lomlashtirish rejalashtirilgan. Ularning qarzarlarini restrukturizatsiya qilish yoki o‘n yilga bo‘lib to‘lash, ozuqa yetishtirish uchun yer maydonlari ajratish va naslli mollar bilan ta‘minlash taklif etildi. Natijada 33 ming bosh qoramol parvarishlanib, yiliga 12 ming tonna go‘st va 40 ming tonna sut ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Chorvachilikka ixtisoslashgan 13 ta tumanda 75 ming gektar ozuqa maydonidan samarali foydalanish, kichik chorvachilik loyihalarini moliyalashtirish, sut qabul qilish punktlari va ozuqa sotish shoxobchalarini tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, aholi xonadonlarida 20 sotix maydonda yengil konstruksiyali 11 mingta molxona qurish va ularda 421 ming bosh qoramol parvarishlash rejalashtirilgan.

Umumiy qiymati 3 trillion so‘m bo‘lgan 802 ta yangi loyiha doirasida 68 ming boshdan ziyod qoramol hamda 186 ming bosh qo‘y va echki parvarishlash ko‘zda tutilgan. Ushbu loyihalar yiliga qo‘shimcha

20 ming tonna go‘st va 120 ming tonna sut ishlab chiqarish imkonini beradi.

Qoraqalpog‘iston misolida chorvachilik komplekslarini sog‘lomlashtirish bo‘yicha sun‘iy intellekt yordamida tayyorlangan tahlil natijalari ham ko‘rib chiqildi. O‘rganilgan 20 ta kompleksning qarzi 109,6 milliard so‘mni tashkil etib, ularning yarmi yuqori xavfli toifaga kiritilgan. Aksariyat obyektlarda ozuqa maydonlari va zarur infratuzilma yetarli emas.

Shundan kelib chiqib, qarz yukini yengillashtirish, ozuqa bazasini shakllantirish, komplekslarni dastlab pilot tartibida, keyinchalik bosqichma-bosqich ishga tushirish va naslli mollar bilan ta‘minlash bo‘yicha takliflar bildirildi.

Mo‘g‘ulistondan 150 ming bosh qo‘y, Xitoy va Yevropa davlatlaridan 100 ming bosh naslli qoramol, Belarus Respublikasidan 2 ming bosh mol olib kelish rejalashtirilmoqda. Bu orqali yiliga qo‘shimcha 44 ming tonna go‘st ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Umuman, chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish uchun 463 million dollar miqdorida mablag‘ yo‘naltirish ko‘zda tutilgan.

Aholi xonadonlari va chorvachilikka ixtisoslashgan mahallalarni qo‘llab-quvvatlash masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Respublikaning 191 ta tumanida 2 ming 407 ta chorvachilikka ixtisoslashgan mahalla mavjud bo‘lib, ularda 823 mingta xonadon va 3,9 million nafar aholi istiqomat qiladi.

Ushbu xonadonlarga arzon chorva mollari yetkazib berish, sigirlarni sun‘iy urug‘lantirish, yem-xashak ta‘minoti va zooveterinariya xizmatlarini yaxshilash, nasldor buzoqlarni identifikatsiya qilish hamda ular uchun subsidiya ajratish taklif etildi. Natijada xonadonlarda chorva bosh soni va mahsuldorlik

ortishi, aholi uchun qo‘shimcha daromad manbalari yaratilishi kutilmoqda.

Naschilik sohasida 13 ta tumanda har biri 200 bosh qoramolga mo‘ljallangan xo‘jaliklar tashkil etish, yiliga 500 ming bosh sigirni saralangan urug‘ bilan sun‘iy urug‘lantirish va embrion transplantatsiyasi texnologiyalarini keng joriy qilish rejalashtirilgan.


Taqdimotda O‘zbekiston chorvadorlar uyushmasini tashkil etish taklifi ham ko‘rib chiqildi. Yangi tuzilma chorvadorlar manfaatlarini himoya qilish, kooperatsiyani rivojlantirish, naschilik ishlari, ilmiy tadqiqot va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish hamda tashqi bozorlarga chiqishga ko‘maklashish bilan shug‘ullanadi.

Fermerlar va aholi uchun “Smart Farmer” yagona raqamli yordamchisi ham taqdim etildi. Mobil ilova orqali chorva mollarni identifikatsiya qilish, veterinar chaqirish, sun‘iy urug‘lantirish, oziqlantirish va yaylovlarni boshqarish bo‘yicha ma‘lumot olish, subsidiyalarga murojaat qilish va sun‘iy intellekt asosida maslahat olish mumkin bo‘ladi.

Parrandachilik sohasida umumiy qiymati 432 million dollar bo‘lgan loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Mazkur loyihalar hisobiga 2028-yilgacha qo‘shimcha 100 ming tonna parranda go‘stni ishlab chiqarish, ozuqa-yem quvvatini 3,3 million tonnaga yetkazish va zamonaviy so‘yish tizimi qamrovini 20 foizdan 50 foizga oshirish maqsad qilingan.

Davlatimiz rahbari loyihalarining iqtisodiy samaradorligini chuqur tahlil qilish, mablag‘larni manzilli yo‘naltirish, raqamli hisob va monitoringni yo‘lga qo‘yish, ichki bozorni sifati va hamyonbop mahsulotlar bilan barqaror ta‘minlash bo‘yicha mutasaddilarga topshiriqlar berdi.

O‘ZA



NURLI, SHUKUHLI, SHARAFLI

Siyosatshunos Quدراتilla Rafiqovning “Millat Shavkati” kitobini o‘qib

Davlat rahbari haqida yozishga jazm etish katta va jiddiy tayyorgarlikni taqozo etadi. Rahbarning hayot yo‘li, faoliyati, shaxs sifatida shakllanishi, dunyoqarashi, tafakkur tarzi, zehniyati, yangidan-yangi muammolarga shayligi... to bir-biridan murakkab va chorasiz vaziyatlarda chora topa olishigacha bo‘lgan mahorati... Ochiq‘i, bu sanoddan tashqarida qolgan mavzular oz emas. Miqyosni bu qadar katta va keng olishning esa har kim uddasidan chiqavermaydi. Shijoati pand beradi. Yana hayotiy tajriba, sinchkovlik, kenglik, fikrlash va yozish layoqatidan-da muhimroq ma‘naviy haq-huquq masalasi ko‘ndalang bo‘ladi.

Buyuk olmon shoiri Gyote shoir kishi dunyoni estetik qadriyatlar mezonlarida idrok etishga o‘zini ma‘nan haqli deb hisoblamog‘i muhimligini alohida ta‘kidlagan edi. Davlat rahbari haqida fikrlash, yozish, mulohaza yuritish va xulosalar chiqarish mezonlariga o‘zini — o‘zligini loyiq va munosib ko‘rish, o‘zini ana shunday qutlug‘ missiyaga ma‘nan haqli deb bilish... “Millat Shavkati” kitobini o‘qish asosida shu boradagi o‘y-xayollar tark etmaydi kitobxonni.

Mamlakatimizda davom etayotgan tarixiy o‘n yillik yangilanish jarayonlari alohida ijodiy salohiyat maqomlaridagina qamrab olinishi mumkinligi tanikli siyosatshunos Quدراتilla Rafiqov asarlari misoli va timsolida ko‘zga tashlanmoqda.

Muallif kitobga jo bo‘lgan 12 ta maqolaning har bir mavzusiga asosan uch yo‘nalishda yondashadi. Bular:

- Vatanimizda keyingi 10 yil mobaynida amalga oshirilgan va oshirilayotgan islohotlar silsilasi;
- islohotlarning bosh me‘mori, tashabbuskori va rahnamosi bo‘lmish muhtaram Prezidentimiz timsoli;
- amalga oshirilayotgan barcha islohotlar, sa‘y-harakatlardan ko‘zlangan bosh maqsad-muddao — xalqimiz qalbidagi rozilik va shukronalik tuyg‘usi tarannumi.

Quدراتilla Rafiqovning o‘ziga xos bayon uslubi kitobxonlarga yaxshi tanish: oson, ravon, tushunarli va samimiy yozadi. Fikr-mulohazalarini ommabop tilda

izhor etadi. O‘quvchi qalbi-shuuriga yo‘l topadi. Lekin shuni tan olib ta‘kidlash zarurki, hech qachon va hech bir mavzuda oson yozish shunchaki oson kechmaydi. Zero, oson yozish mahorati qattiq izlanish va izchil ijodiy zahmatlar evaziga qo‘lga kiritiladi.

Birinchi maqolada Toshkent markazida barpo etilgan Tashkent City haqida so‘z yuritiladi. Bor-yo‘g‘i 6-7 yilda qurib bitkazilgan ushbu maskandagi bunyodkorlik ishlarni istagancha ta‘riflash mumkin. Zamonaviy shaharsozlik, me‘morchilik nuqtayi nazaridan yurtimiz uchun beqiyosligi ma‘nosida maqtanishga arziqli voqea desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu o‘rinda “maqtanishga” degan so‘z bejiz tilga olingani yo‘q. Maqola muallifi Tashkent City qurilishi bahonasida tafakkur o‘zgarishidan so‘z ochmoqda. Sarlavhaga e‘tibor beraylik: “Bunyodkorlikdan tafakkur o‘zgarishi sari” deganda nima nazarda tutilmoqda?

Mamlakatimizda davom etayotgan bunyodkorlik ishlaridan istagancha faxrlanish, istagancha hayratlanishga haqlimiz, ammo ko‘z o‘ngimizda yuz berayotgan ana shu yangilanishlarning tafakkurimizni o‘zgartirayotgani borasida qancha so‘z ochsak, shuncha oz.

Davomi 3-betda

YUKSAK TARAQQIYOT DASTURI

Har bir mamlakat taraqqiyoti, avvalo, iqtisodiyotning barqaror o‘shishi, aholi farovonligi yuksalishi va inson manfaatlari ta‘minlanishi bilan o‘lchanadi. So‘nggi yillarda mamlakatimizdagi keng ko‘lamli islohotlar aynan shu ezgu maqsadlarga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatlidir.



Munosabat

Davlatimiz rahbari raisligida o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida joriy yilning birinchi yarmida erishilgan natijalar hamda yil yakuniga qadar bajarilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar atroficha muhokama qilindi. Bu yig‘ilish nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili, balki taraqqiyotimizning yangi bosqichiga qaratilgan muhim siyosiy dastur sifatida ham ahamiyat kasb etdi.

Qayd etilganidek, joriy yilning olti oyida mamlakat iqtisodiyoti 8,5 foiz o‘sd, bunda sanoatda 8 foiz, xizmat ko‘rsatish sohasida 16,9 foiz, qurilishda 13,8 foiz va qishloq xo‘jaligida 4,7 foiz o‘shish kuzatildi.

Davomi 2-betda



Taraddud



“PREZIDENT SOVG‘ASI” KARVONI YO‘LGA CHIQDI

Yangi o‘quv yili boshlanishiga oz vaqt qoldi. 2026/2027-o‘quv yilida mamlakatimizdagi 10 ming 225 ta umumta‘lim maktabida 550 mingdan ortiq o‘qituvchi 6,7 milliondan ziyod o‘quvchiga ta‘lim-tarbiya berishi kutilmoqda. 5-avgust holatiga ko‘ra, 1-sinfga qabul qilinishi rejalashtirilgan 795 mingdan oshiq boladan 680 ming nafari ro‘yxatga olib bo‘lindi.

Davomi 2-betda



Tahlil

O‘zbekiston paxta yetishtirish bo‘yicha hamon dunyoda yetakchilardan.

Ammo endi bu avvalgidek og‘ir mehnatga asoslangan, qilingan mehnatga yarasha hosil olinmaydigan amaliyot emas. Bugun mamlakat paxtachiligida o‘zgarishlar juda katta. Yangi va serhosil navlar kirib keldi. Urug‘chilikka munosabat o‘zgardi. Qo‘shqator ekish, tomchilatib sug‘orish, tomchilatib o‘g‘itlash (fertigatsiya), dronlar, zamonaviy texnika va biotexnologiyalar dalaga kirib bordi. Eng muhimi, ilm faqat laboratoriya yoki ilmiy stansiyalarda emas, fermer dalasida natija bera boshladi.

PAXTACHILIKDAGI SAKKIZ QONUNIYAT

Yaxshi nav imkoniyatini ochilgan ko‘sak va fermer daromadiga aylantirish yo‘li



Biz ko‘rib turgan bu o‘zgarishlar o‘z-o‘zidan yuz bermadi. Buning ortida katta siyosiy iroda, aniq islohotlar yotibdi. Davlatimiz rahbari boshchiligidagi qishloq xo‘jaligida fermer manfaatini kuchaytirish, bozor tamoyillarini joriy etish, imtiyozli moliyalashtirish va subsidiyalar, zamonaviy texnika, suv tejovchi texnologiyalar, yangi urug‘ va ilmiy ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan izchil siyosat amalga oshirildi. Qisqacha aytganda, davlat sharoit va rag‘bat yaratdi, olim va mutaxassis yechim taklif qildi, fermer esa uni dalada natijaga aylantirdi. Yangi O‘zbekiston paxtachiligining o‘ziga xos modeli ana shu hamkorlikda shakllandi.

Davomi 4-betda

2026-yil 6-avgust, 158-son

Eduards STIPRAYS: “2016-YILDAN BUYON O‘ZBEKISTONNING JADAL RIVOJLANAYOTGANIGA GUVOH BO‘LYAPMAN”

Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Eduards Stiprays O‘zbekiston mustaqilligining 35-yilligi arafasida “Dunyo” AA orqali yurtdoshlarimizga o‘zining samimiy tabrigi va ezgu tilaklarini yo‘lladi:

— Bugun O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligi munosabati bilan sizlarga murojaat qilayotganimdan benihoya mamnunman.

Ushbu qutlug‘ ayyom munosabati bilan eng samimiy tabriklarimni qabul qilgaysiz.

O‘zimni O‘zbekiston xalqining haqiqiy do‘sti deb bilaman. Yevropa Ittifoqining O‘zbekistondagi elchisi sifatida to‘rt yil davomida yurtingizda yashash va ishlash sharafiga muyassar bo‘ldim. Bugungi kunda esa Yevropa Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili sifatida O‘zbekistonga muntazam tashrif buyuryapman.

O‘zbekistonning ulkan taraqqiyotiga bevosita guvoh bo‘lish imkoniga ega bo‘ldim. 2016-yildan buyon keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirildi. O‘n yil avval boshlangan yangilangan jarayonlar natijasida mamlakat hayotida mazmunli va sezilarli o‘zgarishlar yuz berib, u yangi qiyofa kasb etdi.


Mazkur islohotlar O‘zbekistonnii dunyoga ochdi, uni xalqaro hamkorlar, biznes doiralari hamda mehmonlar uchun yanada jozibador maskanaga aylantirdi.

Mamlakat fuqarolari uchun haqiqiy manfaatlar keltirdi. Aholi turmush darajasini oshirish, farovonlikni yuksaltirish hamda shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qildi.

Iqtisodiy taraqqiyotni rag‘batlantirish, biznes muhitini yaxshilash va ijtimoiy taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash orqali islohotlar dasturi ko‘plab insonlarga o‘z orzu-intilishlarini amalga oshirish, o‘zlari va oilalari uchun yanada yaxshiroq kelajak barpo etish imkonini berdi.

Shu bilan birga, so‘nggi o‘n yil davomida erishilgan ulkan yutuqlar nafaqat faxr manbai, balki kelgusi taraqqiyot uchun mustahkam poydevor hamdir. Ular mamlakat va uning xalqi uchun yangi ishonch, yangi kuch-g‘ayrat va yangi imkoniyatlarni yaratdi.

Keng ko‘lamli o‘zgarishlar va islohotlar jarayoni davom etmoqda. Qo‘lga kiritilgan



natijalarni mustahkamlash va mamlakat taraqqiyotini yanada yuqori bosqichga olib chiqish uchun yangi istiqbollar ochilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, qishloq xo‘jaligi, mahalliy boshqaruv va energetika sohalaridagi o‘zgarishlarni davom ettirish alohida ahamiyatga ega. Bu sohalardagi taraqqiyot amalga oshirilgan islohotlarning samarasini yanada kuchaytiradi, mamlakat salohiyatini ro‘yobga chiqaradi va fuqarolarga aniq manfaatlar keltiradi.

Tashqi va ichki tahdidlar, inson omili bilan bog‘liq hamda tabiiy xavf-xatarlar qarshisida barqarorlikni mustahkamlash O‘zbekiston uchun muhim vazifalardan biridir. Suv tanqisligi, iqlim o‘zgarishi, tashqi iqtisodiy bosimlar va xavfsizlikka oid tahdidlarga qarshi turish nafaqat kuchli davlatni, balki kuchli fuqarolik jamiyati institutlarini, zamonaviy ta‘lim olgan va tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega fuqarolarni ham talab etadi.

Yangi O‘zbekiston xalqaro hamkorlikning yangi davrini boshlab berdi. Mamlakat Markaziy Osiyoning markazida ishonchli va konstruktiv sherik sifatida namoyon bo‘lib, butun mintaqada tinchlik, barqarorlik va o‘zaro savdoni rivojlantirishga beqiyos hissa qo‘shmoqda.

Hamkorligimiz izchil ravishda mustahkamlanib bormoqda va uning kelajagi porloqdir. Bugungi kunda u o‘zaro bog‘liqlik,



ta‘lim, raqamli texnologiyalar, “yashil” o‘tish, barqaror rivojlanish va muhim xomashyo resurslari kabi keng ko‘lamli sohalarni qamrab olgan.

Yevropa Ittifoqi bilan O‘zbekiston aloqalari tobora mustahkamlanib borayotgan strategik sheriklik munosabatlaridir. Bugungi o‘zgaruvchan geosiyosiy sharoitda Yevropa Ittifoqi O‘zbekistonning islohotlar yo‘lidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlashga katta ahamiyat qaratadi va ushbu yo‘lda mamlakat bilan yelkama-yelka turishdan faxrlanadi.

Bu hamkorlik qonun ustuvorligi, inson huquqlari, mehnat huquqlari, gender tengligi, O‘zbekistonning GSP+ rejimidan foydalanishi, Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lish jarayoni hamda savdo to‘siqlari va cheklovlarini bosqichma-bosqich qisqartirish kabi muhim yo‘nalishlarni qamrab olgan.

2025-yilda Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi Yevropa Ittifoqi — Markaziy Osiyo sammiti doirasida o‘natilgan strategik sheriklik munosabatlari mintaqalarimiz o‘rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamladi. U bizga umumiy muammolarni birgalikda hal etish, insonlar hayotini yaxshilaydigan va umumiy barqarorligimizni kuchaytiradigan amaliy loyihalarni bajarish imkonini bermoqda.

O‘zbekistondagi barcha hamkorlarimizga Yevropa Ittifoqi bilan munosabatlarni mustahkamlash yo‘lidagi sadoqati va sa‘y-harakatlari uchun chuqur minnatdorlik bildiramiz. Biz hamkorlik ruhini yuksak qadrlaymiz va sherikligimizning keyingi bosqichlariga katta ishonch bilan qaraymiz.

Yana bir bor O‘zbekiston xalqini mustaqillikning 35 yilligi munosabati bilan chin qalbidan tabriklayman.

Mustaqillik bayramingiz muborak bo‘lsin!

“Dunyo” AA
Brussel shahri

YUKSAK TARAQQIYOT DASTURI

Boshlanishi 1-betda

O‘tgan davrda investitsiya hajmi 28 milliard dollarga, eksportning 14,4 milliard dollarga yetgan hamkorlarimizning iqtisodiyotimizga ishonchi ortib borayotganidan dalolat. Xalqaro reyting agentliklari tomonidan O‘zbekistonning suveren kredit reytingi bir pog‘onaga yaxshilanishi ham dunyo hamjamiyati yurtimizdagi iqtisodiy siyosatni ijobiy baholayotganini ko‘rsatmoqda.

Aholi soni oshib borar ekan, ish o‘rinlari, daromadlar, ijtimoiy xizmatlar va infratuzilma ham shunga mos rivojlanishi lozim. Yig‘ilishda ayrim hududlarda rejalar ijrosi sust kechayotgani tanqidiy tahlil qilindi va yalpi hududiy mahsulot, sanoat, qurilish, investitsiya va eksport bo‘yicha mavjud imkoniyatlardan to‘liq foydalanilmayotgani qayd etildi. Shu bois, oylik, choraklik va yillik rejalar ijrosini ta‘minlamagan rahbarlarning mas‘uliyati kuchaytirilishi belgilab berildi. Bunday yondashuv davlat boshqaruvida intizom va shaxsiy javobgarlik tamoyillari ustuvor ahamiyat kasb etayotganini anglatadi.

Xorijiy investitsiya jalb qilish va tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish davlat



siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri. Keyingi yillarda amalga oshirilgan yuqori darajadagi tashriflar davomida umumiy qiymati 213 milliard dollarlik 1617 ta investitsiya loyihasi bo‘yicha kelishuvlarga erishilgan. Bu, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyoti uchun katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Davlatimiz rahbari eng muhim vazifa sifatida ushbu kelishuvlar vaqtida va sifatli bajarilishiga e‘tibor qaratdi. Endi



Munosabat

yuqori darajadagi tashriflar davomida erishilgan kelishuvlar bo‘yicha Hisob palatasi va Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qat‘iy nazorat o‘rnatilishi belgilandi.

Yig‘ilishda aholi turmush darajasiga bevosita ta‘sir qiluvchi inflyatsiya va oziq-ovqat xavfsizligi masalalari alohida tilga olindi. Narx-navo barqarorligi har bir oilaning farovonligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu ma‘noda, ayrim mahsulotlar narxi keskin oshib ketmasligi uchun amaliy choralar ko‘rilishi yuzasidan aniq vazifalar belgilangani ayni muddaodir.

Yaqinda o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish natijalari chorvachilik sohasidagi haqiqiy holatni aniq ochib berdi. Endi mazkur tarmoqni yanada qo‘llab-quvvatlash uchun qo‘shimcha mablag‘ yo‘naltiriladi va yil yakuniga qadar 100 ming bosh qoramol hamda 150 ming bosh qo‘y-echki olib kelinadi. Natijada ichki bozor arzon va sifatli go‘sht mahsulotlari



Quvondiq SANAQULOV,
Oliy Majlis Senati a‘zosi

va eksport salohiyatini oshirishga zamin yaratishi shubhasiz.

Global iqtisodiyotdagi noaniqliklar hali davom etishi va jahon bozorlaridagi o‘zgarishlar eksportyorlarimiz faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatishi ehtimolidan kelib chiqib, har bir rahbarga tashqi xavflarni hisobga olgan holda ichki imkoniyatlarni to‘liq safarbar qilish vazifasi yuklandi. Zero, bugungi keskin raqobat sharoitida faqatgina tezkor qaror qabul qiladigan, tashabbuskor va zamonaviy fikrlaydigan rahbarlarga yuqori natijaga erisha oladi.

Shu maqsadda tarmoqlar va hududlarga birlashtirilgan “aql markazlari” ishtirokida ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilishi belgilandi. Mazkur takliflar “resurs — infratuzilma — loyiha — ishlab chiqarish — byudjetga tushum — eksport” zanjirini yagona tizim sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuv esa iqtisodiyotning barcha bo‘g‘inlari o‘zaro uyg‘un holda ishlashini ta‘minlaydi.

Eng muhimi, yangi ish o‘rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, investitsiyalarni ko‘paytirish va eksport geografiyasini kengaytirishdan ko‘zlangan asosiy maqsad xalq farovonligini yuksaltirishdir.

Bugun mamlakatimiz oldida turgan vazifalar ulkan, ammo imkoniyatlar undan ham katta. Islohotlarning izchil davom ettirilishi, rahbarlarning mas‘uliyati, xalqning mehnatsevarligi va tadbirkorlarning tashabbusi birlashgan pallada yangi O‘zbekistonning iqtisodiy qudrati yanada mustahkamlanadi. Bu esa har bir oila, har bir mahalla va butun mamlakat taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi.



Boshlanishi 1-betda

An‘anaviy tarzda bu yil ham 1-sinf o‘quvchilari uchun 12 nomdagi o‘quv qurollaridan iborat “Prezident sovg‘asi” tayyorlandi. Kuni kecha “Prezident sovg‘asi” karvoni hududlarga yo‘l oldi. O‘quv qurollari joriy yil 15-avgustga qadar mamlakatimizdagi barcha shahar qishloqlarga, 25-avgustga esa maktablarga to‘liq yetkazib beriladi va o‘z egalariga tantanali topshiriladi.

“Prezident sovg‘asi” nodavlat maktablar, boshqa vazirlik va idoralar tasarrufidagi ta‘lim tashkilotlari o‘quvchilariga ham beriladi. Har bir bolani “Prezident sovg‘asi” bilan o‘z vaqtida ta‘minlash maqsadida vazirlikning adm.maktab. uz elektron platformasi orqali bolalar ro‘yxati nomma-nom shakllantirildi.

O‘quv qurollari jamlanmasini tayyorlashdan avval o‘tgan o‘quv yillarida farzandlarimizga berilgan “Prezident sovg‘asi” tarkibidagi mahsulotlarning sifati, chidamliligi bo‘yicha ota-onalar o‘rtasida so‘rovnomma o‘tkazdik, — dedi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi boshqarma boshlig‘i Erkin Murodov. — Bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, mahsulotlarning sifatiga alohida e‘tibor qaratdik. Har bir o‘quv quroli belgilangan standartlardan o‘tkazildi, sanitariya qoidalari va me‘yorlariga mosligi o‘rganildi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari mavjud bo‘lgan bolalar uchun esa inklyuziv ta‘lim jarayoniga moslashtirilgan o‘quv qurollari tayyorlandi.

Maktab portfeli pishiq materialdan tayyorlangan. Darsliklar o‘lchami va vazni

ham me‘yordan ortib ketmasligi uchun alohida ishchi guruh ishladi. Kitoblarning tegishli texnik reglament asosida tayyorlanishi ta‘minlandi. Reglamentga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining har bir darsligi og‘irligi 400 grammdan oshmasligi belgilangan. 1-sinf o‘quvchilari uchun tayyorlangan 16 nomdagi darslik va 8 nomdagi mashq daftarlarining o‘lchami o‘rganilgan. Masalan, dushanba kuni o‘tiladigan 4 ta fan darsligi vazni 1 kilogramm 181 gramm chiqqan. Dars jadvaliga muvofiq, kitoblarning eng og‘ir ko‘rsatkichi 1 kilogramm 236 grammni tashkil etadi.

— “Prezident sovg‘asi”ni topshirish chog‘ida bolalar qatori biz, o‘qituvchilar ham hayajonlanamiz, — deydi Chilonzor tumanidagi 202-maktab direktori Nargiza Muhammadiyeva. — Chunki bu lahzalar, “Prezident sovg‘asi”ni olish zavqi o‘g‘il-qizlar xotirasida bir umr muhrlanib qoladi. Shuning uchun ham sovg‘alar tantanali topshiriladi.

Joriy yil mazkur maktabning 1-sinfiga 175 bola qabul qilindi. Shuningdek, alohida ta‘lim ehtiyojiga ega 11 o‘quvchi uchun inklyuziv sinflar ochilib, maxsus pedagoglar jalb etildi.

Birgina maktab misolidagi bunday sharoit bugun eng chekka qishloqlarda ham mavjud. Bundan maqsad — farzandlarimizni ilimga chanqoq, intiluvchan, intellektual yuksak o‘g‘il-qizlar etib tarbiyalash. “Prezident sovg‘asi” esa maktabga ilk qadam qo‘yadigan bolalarga bu yo‘ldagi rag‘bat bo‘ladi.

Munojat MO‘MINOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



Obod manzillar

KELING, HAVAS QILING!

Qo‘qon shahridagi “Muqimiy” va “Shikorbegi” mahalla fuqarolar yig‘inlarida “Obod mahalla — obod ko‘cha — obod uy” tamoyili doirasidagi bunyodkorlik, obodonchilik ishlari aholi hayot tarzini o‘zgartirmoqda. Xonadonlar, ko‘chalar yangi me‘moriy ko‘rinishga kelyapti, ko‘makka muhtoj oilalar har jihatdan qo‘llab-quvvatlanmoqda.

Mazkur MFYlarda 3438 ta oila bor. Obodonchilik ishlari uchun aynan ular tanlab olingani bejiz emas. O‘tgan asming 80-yillarida kimyogarlar shaharchasi sifatida qurilgan qirqdan ortiq ko‘p qavatli uy-joyda istiqomat qilayotgan

10 mingdan ortiq aholi uzoq yillardan buyon muammolar girdobida qolgandi. Ko‘p qavatli uylarni isitish tizimlari ishdan chiqqan, suv, tabiiy gaz, elektr ta‘minoti, transport va xizmat ko‘rsatish sohalarida yuzaga kelgan kamchiliklar aholining haqli e‘tirozlariga sabab bo‘layotgan edi.

Bugun bu yerdagi manzara kundan kunga o‘zgarib bormoqda. Mavjud muammolarni bartaraf etish, aholi turmush darajasini ko‘tarish, hayotdan rozi bo‘lib yashashi uchun aniq chora-tadbirlar ko‘rilyapti. Uy-joylar zamonaviy issiqlik tizimiga ulanmoqda, ichki yo‘llar, transformatorlarni ta‘mirlash, simyog‘ochlar o‘rnatish, qo‘shimcha



tarmoqlar tortish, kuchlanishlarning oldini olish, yashil hududlar yaratish, chiqindilar yig‘ish tarmoqlari qurish, suv yo‘llarini tartibga keltirish bilan bog‘liq barcha zaruriy ishlar qilinayapti. Shuningdek, sog‘lomlashtirish xiyobonlari, velo-yo‘lak, piyodalar yo‘laklari tashkil etilyapti. O‘ndan ortiq zamonaviy sport maydonchasi, “workout” zonalar, mahalla futbol akademiyasi uchun o‘yin maydonlari qurish, markaziy ko‘chalarning birida 24/7



tartibda faoliyat yuritadigan savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlari, dam olish va yoshlar markazi qurilishi bilan bog‘liq bunyodkorliklar mahalla qiyofasini tubdan o‘zgartirmoqda.

“Obod uy” mezonni asosida barcha ko‘p qavatli uy-joylarning ichki, tashqi, tom qismi ta‘mirlanayapti. Uylarning tashqi qismi bazalt bilan qoplanmoqda. Bu chora-tadbirlar aholi yashash xonadonlarini yozda issiqdan, kuz-qish mavsumida sovug‘dan himoyalash imkonini beradi.

— Bu yerga kelin bo‘lib tushganimga qirq yildan oshdi, — deydi Mavjuda Aminova. — Mahallamiz masidan uzilib qolgandi. Aholiga faqat bitta yo‘nalishdagi transport xizmati ko‘rsatib kelingan. Endi o‘nlab yo‘nalishlar bo‘ylab transport xizmati yo‘lga qo‘yilgani uzog‘imizni yaqin, qo‘irimizni yengil qilyapti. Atrofga boqsam, ko‘zim quvnaydi, dilim yayraydi. Baraka topishsin, ko‘p qavatli har bir uy-joy oldida zamonaviy bolalar o‘yin maydonlari qurib berishyapti. Uylarimiz markazlashgan issiqlik tizimlari bilan ta‘minlanmoqda. Tunda ham kunduzdek yorishgan ko‘cha va xiyobonlarda sayru sayohat qilishimiz uchun qulay sharoitlar bor. E‘tibor, g‘amxo‘rlikdan ko‘nglimiz yuksalmoqda.

Mahalla fuqarolar yig‘inidagi bunyodkorlik, obodonchilik ishlari bilan tanishish jarayonida e‘tiborimizni tortgan yana bir jihat shu bo‘ldiki, barcha uy-joylar yonida milliy urf-odat va qadriyatlarimizga xos sayilgoh, yashil hududlar, ma‘naviy-

ma‘rifiy tadbirlar o‘tkaziladigan madaniyat maskanlari qurilmoqda. Bu loyihalar aholini bir maqsad yo‘lida birlashtiradi, hamjihatlikka undaydi.

— Shu paytga qadar ikkita mahalla fuqarolar yig‘ini eski binoda bir amallab kun o‘tkazib kelgan, — deydi “Shikorbegi” MFY raisi Odinaxon Pirmatova. — Birov kelsa, o‘tqazishga joy topolmay qolardik. Hamma qiyinchiliklar ortda qoldi. Hamma davlat-xususiy sheriklik asosida mahalla fuqarolar yig‘ini uchun yangi bino jadallik bilan qurilmoqda.

Obodonchilik, bunyodkorlik bu bilan cheklanib qolayotgani yo‘q. Ehtiyojmandlarni ijtimoiy himoyalash, ishsiz, migratsiyadan qaytgan yoshlarni ish bilan ta‘minlashga e‘tibor oshdi. Mahallada tikuvchilik, to‘quvchilik drayver sohaga aylangan. Loyiha doirasida bu yerda yangi tadbirkorlik subyektlarini ishga tushirish, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga alohida e‘tibor qaratildi. Ayni kunda xo‘jalik sumkalari va charm belbog‘lar hamda bolalar trikotaji ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zamonaviy korxona qurilishi poyoniga yetmoqda. Yangi korxona bir vaqtning o‘zida 500 ga yaqin yosh va xotin-qizni ish bilan ta‘minlaydi. Bundan tashqari, 48 ta tadbirkorlik loyihasi amalga oshirilmoqda.

Yurt obodligi, aholi farovonligi yo‘lidagi hayotbaxsh islohotlar olis hududlarda ham shu tarzda bo‘y ko‘rsatmoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Sherzod Qoraboyev olgan suratlari.

4

JAMIYAT

2026-yil 6-avgust, 158-son



Tahlil



PAXTACHILIKDAGI
SAKKIZ QONUNIYAT

Yaxshi nav imkoniyatini ochilgan ko'sak va fermer daromadiga aylantirish yo'li



Ibrohim ABDURAHMONOV,
qishloq xo'jaligi vaziri,
akademik,
Prezident huzuridagi
Paxtachilik kengashi raisi



YANGI O'ZBEKISTON

uchun texnologiya intizomi qog'oz uchun emas, hosil uchun kerak. Intizom agrotexnik talabdan tashqari davlat ko'magi, suv, yer va mehnatga nisbatan halol munosabat hamdir. Chegaralar esa ishni to'g'ri yo'ldan chiqarmaslik uchun qo'yiladi.

Sakkizinchisi — toza dala kelajak hosiliga hurmat

Plyonka va tomchilatish lentasi suvni tejash, tuproq haroratini saqlash, niholni erta rivojlantirishga xizmat qiladi. Ammo mavsum oxirida dalada qolgan plyonka mayda bo'laklarga parchalanib, tuproqqa aralashsa, ariqni to'ssa yoki texnikaga o'ralsa, kechagi foydali vosita bugungi xavfga aylanadi.

Elektr energiyasi juda foydali, lekin himoyasiz sim xavfli. Yo'l insonga kerak, lekin svetofor va qoida bo'lmasa, halokat keltiradi. Polimer ham shunday: to'g'ri ishlatilsa, suvni tejaydi va hosildorlikni oshiradi, dalada tashlab ketilsa, tuproq, suv va kelajak avlod uchun muammo tug'diradi.

Shuning uchun plyonka va lentani to'liq yig'ish, o'g'it qoplari va pestitsid idishlarini alohida saqlash, plastikni yoqmaslik, kimyoviy idishlarni uy-ro'zg'orda qayta ishlamaslik zamonaviy fermer madaniyatining ajralmas qismidir. Axir toza dala faqat chiroy emas, u tuproq unumdorligi, suv xavfsizligi, texnika ishi, tola tozaligi va xo'jalik obro'si.

Qo'llanma nega uch tilda tayyorlandi?

Bugun paxtachilik tajribasi bir hudud yoki bir mamlakat chegarasida qolib ketmaydi. Qurq'oqchilik, issiq, sho'r'lanish va suv tanqisligi Markaziy Osiyoda ham, boshqa paxtachilik mintaqalarida ham o'xshash savollarni tug'dirmoqda. O'zbekiston dalalarida sinovdan o'tayotgan ko'chat qalinligi, qo'shqator ekish, stressga qarshi oziqlantirish, hosilni yetiltirish va toza dala madaniyati boshqa mamlakatlar mutaxassislari uchun ham qiziq.

Shu sababli sakkiz qonuniyat qo'llanmasi o'zbek, rus va ingliz tillarida bir to'plamga jamlandi. Unda har bir qonuniyat bo'yicha maqsad, amaliy ketma-ketlik, me'yor va muddatlar, ehtiyoj choralarini hamda ko'p uchraydigan xatolar batafsil berilgan. Maqsad — fermerga yana bir kitob berish, ayni qoror qabul qilishda qo'lga tushadigan, ergonom dalada ochib qaraydigan va mutaxassis tavsiyani bir xil tushuntiradigan umumiy ish qo'llanmasini yaratishdir.

Sakkiz qonuniyatning har biriga alohida qaralsa, oddiydek tuyuladi. Lekin ular birgalikda qo'llanganda navning genetik imkoniyati haqiqiy hosilga, fermer mehnati daromadga, ilm esa daladagi natijaga aylanadi. Bu model davlatning qo'llab-quvvatlashi, fermerning iqtisodiy manfaati va tashabbusi, ilm-fan, genetika va epigenetik bilim, texnologiya intizomi hamda inson va tabiat o'ldidagi mas'uliyatni yaxlit zanjirga birlashtiradi.

Har gektarda yetarli va bir tekis ko'chat. Har ko'chat uchun to'g'ri joy. Har tupda me'yordagi bo'y va 8-10 ta bo'liq ko'sak. Har bosqichda to'g'ri sug'orish va muvozanatli oziqlantirish. Har zararkunandaga o'z vaqtida, oqilona javob. Mavsum oxirida pishishni boshqarish. Har bir ishda intizom. Terimdan keyin toza dala.

Mana shu sakkiz qoida O'zbekiston paxtachiligining yangi madaniyatini belgilaydi. Zero, yuqori hosil tasodifan olinmaydi. U davlat yaratgan imkoniyat, ilm bergan yechim va fermerning har kuni daladagi mas'uliyatli harakati orqali kuzatiladi, o'lchanadi, boshqariladi va vujudga keladi.

qurilishi yakunlanib, allaqachon xonadonlarga obihayot kirib borgan.

— Qishlog'imiz aholisi shu vaqtgacha suvni uzoq yo'l bosib, buloqdan tashib keldirdi, — deydi suv saqlash va tarqatish inshooti xodimi Said Mirzamov. — 60 tonna sog'imga ega inshoot qurilgach, 40 xo'jalikning toza ichimlik suv bilan bog'liq muammosi hal bo'ldi.

Nurotada ichimlik suv borasida ana shunday katta o'zgarishlar bo'y ko'rsatyapti. Bir mahallada insonlar orzusi ro'yobga chiqqan bo'lsa, yana ikkitasida tez kunlarda suv kelishini kutmoqda. Davlat dasturlari doirasidagi bunday loyihalar aholi turmush sifati va salomatligini yaxshilashga, hududlarning barqaror rivojlanishiga mustahkam zamin yaratmoqda.

— Yangi O'zbekiston qiyofasidagi tumanlar dasturi doirasida olis mahallalarga suv quvurlari tortish bo'yicha rejadagi barcha ishlar jadal davom etirilmoqda, — deydi Nurota tumani suv ta'minoti muhandisi Elyor To'rayev. — Qadoq mahallasida ham 18 kilometr ichimlik suv tarmog'i tortish reja qilingan. Ayni vaqtda uning loyihasi ishlab chiqilyapti. Tumanimizda o'tgan yil yakuni bo'yicha aholining markazlashgan suv bilan ta'minlanganlik darajasi 73,2 foizni tashkil etgan. Shu yil yakunigacha bu ko'rsatkichni 80 foizga yetkazish kutilmoqda. Natijada 600 dan ortiq xonadon ilk bor ichimlik suv bilan ta'minlanadi va 250 xonadonga borgan suv quvuri yangilanadi.

Nurota tumanidagi mazkur egzu ishlar aholini toza ichimlik suv bilan ta'minlash borasidagi keng qamrovli islohotlarning bir qismi, xolos. Viloyatda ichimlik va ogqova suv infratuzilmasini rivojlantirish uchun yirik loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Bu esa aholi farovonligi yanada oshishiga xizmat qilaypti.

G'olib ABDUSALOMOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Ibrohim ABDURAHMONOV, qishloq xo'jaligi vaziri, akademik, Prezident huzuridagi Paxtachilik kengashi raisi

Boshlanishi 1-betda

Biroq ko'makning o'zi yuqori hosil degani emas. Subsiidiya hisobiga o'rnatilgan tomchilatish tizimi to'liq ishlatilmasa, imtiyozli mablag'ga olingan texnika to'g'ri sozlanmasa, yaxshi urug' noto'g'ri sxemaga ekilsa, davlat sarfi ham, fermer mehnati ham kutilgan samarani bermaydi. Shuning uchun yuqori hosilni birgina nav, o'g'it yoki preparat emas, o'zaro bog'langan ishlar va qat'iy texnologiya intizomi beradi. Zanjirning bitta halqasi uzilsa, qolgan mehnat samarasi ham pasayadi.

Bugun har birimiz smartfondan foydalanamiz. Uning protsessori, xotirasi va kamerasi qanchalik kuchli bo'lmasin, kerakli dasturlar bo'lmasa, imkoniyati to'liq ochilmaydi. Qishloq xo'jaligida ham shunday: yaxshi nav, sifatlil urug' va kuchli genetika — katta imkoniyat. Yerni tayyorlash, to'g'ri ekish, suv va ozuqa berish, g'o'za tupini shakllantirish, zararkunandadan himoya qilish, yetilishini boshqarish va dalani toza saqlash, davlat qo'llovi (subsiidiyalari va imtiyozli kreditlar) esa shu imkoniyatni ishga tushiradigan mexanizmdir. Bu — genetika bilan epigenetik bilimning yangi birlashuvi, ya'ni genetika navga salohiyat beradi, suv, ozuqa, nur, harorat, stress va parvarish esa shu salohiyatning qay darajada namoyon bo'lishini belgilaydi.

Ana shu tamoyillar asosida yangi nashr — “Paxtachilikda yuqori hosildorlik sari: har bir fermer bajarishi shart bo'lgan 8 qonun” nomli metodik qo'llanma tayyorlandi. U o'zbek, rus va ingliz tillarida yagona to'plam sifatida nashr etilmoqda. Bu yerda “qonun” deganda huquqiy hujjat emas, balki e'tibordan chetda qoldirilsa, oqibati hosilida darhol ko'rinadigan asosiy agrotexnik qoidalar nazarda tutiladi.

Sakkiz qonunga faqat hosildorlik formulasi deb qarash kamlik qiladi. Ular inson manfaatiga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligining amaliy chegaralaridir. Fermer daromadli, dalada ishlayotgan mehnatkash xavfsizligi, iste'molchi ishsonchi, tuproq va suvning ertangi holati o'zaro bog'liq. Shu sababli bu qoidalarda iqtisodiy manfaat bilan birga kasbiy odob, ekologik mas'uliyat va kelajak avlod oldidagi burch ham mujassam.

OLIS QISHLOQLARGA FAYZ, INSONLAR QALBIGA QUVONCH OLIB KIRGAN LOYIHALAR

Suv keltirgan elda aziz

— Shu mahallaga kelin bo'lib kelganimga 18-yil bo'ldi. O'tgan yillar davomida suvni tashib ichardik, — deydi Dilafro'z Saidova. — Ayniqsa, erkaklari kun bo'yi ishda yuradigan oila ayollari uchun bu azob edi. Endi har bir xonadonga suv quvurda kelayotgani bizni xursand qildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda aholini sifatlil ichimlik suv bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, olis va chekka hududlarga sifatlil suv yetkazib berish bo'yicha keng qamrovli ishlar qilyapti. O'zgarishlar esa xalqimiz salomatligi, turmush farovonligiga ijobiy

ta'sir qilib, hududlar taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Bu boradagi yangilanishlar Navoiy viloyatida ham izchil davom etmoqda.

— O'tgan 2025-yil boshida Navoiy viloyatida markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanganlik darajasi 85,2 foizni tashkil etgan edi, — deydi “Navoiy suv ta'minoti” AJ direktori Otabek Zaripov. — Joriy yil yakuniga qadar bu ko'rsatkichni 88,5 foizga yetkazish rejalashtirilgan. Ayni vaqtda Nurota tumanining Mustaqillik mahallasida 35 kilometr suv quvuri tortish, 1 ta suv inshooti qurish bo'yicha qurilish-montaj ishlari davom etmoqda. Buning natijasida 1100 ta xonadon yoki 4500 aholi ilk bor toza ichimlik suv bilan ta'minlanadi. Hozir bu kabi ishlar boshqa olis hududlarda ham olib borilmoqda. Navbahor tumanida Islom taraqqiyoti banki mablag'lari hisobidan qiymati 4 milliard 265 million so'mlik loyiha doirasida qurilish-montaj ishlari bajarilyapti. Uning natijasida Sarbozor, Navkar, Chorovqog'zar, Arabxona, Ko'xron, Qorovultepa, Yangiyo'l, Burqut, Navbahor, Kelachi hamda G'ujbog'tepa mahallalari aholisi sifatlil va barqaror ichimlik suv bilan ta'minlanadi. Loyiha doirasida 68,5 kilometr ichimlik suv tarmog'i torthilishi, 1 ta yangi suv

inshooti qurilishi hamda 1 ta mavjud suv inshooti rekonstruksiya qilinishi rejalangan. Natijada 1436 ta xonadonda istiqomat qiluvchi aholi ilk bor markazlashgan ichimlik suv ta'minotiga ega bo'lib, 560 ta xonadonning ichimlik suv ta'minoti tubdan yaxshilanadi.

Nurota tumanining olis mahallalariga ham ichimlik suv tarmoqlari tortilib, aholi

yillar davomida kutib kelgan qulaylikka ega bo'lyapti. Suv ta'minoti muammo bo'lgan mahallalarda yangi quvurlar yotqizilib, zamonaviy infratuzilma barpo etilmoqda.

Nurota markazidan qariyb 65 kilometr uzoqda joylashgan Sovuqbuloq qishlog'ida ham suv muammosi barham topdi. Qishloqda suv inshooti

Beshinchisi — g'o'zani faqat o'stirish emas, vaqtda yetishtirish ham zarur

Dalada sanab qo'yilgan yashil ko'sak emas, balki yetilgan, ochilgan, tolasli shakllangan, chigiti to'lgan, vazni bor va terib olingan paxta haqiqiy hosil sanaladi. Ko'sak ochilmasa, fermer daromadli bo'lmaydi.

G'o'za tabiatan uzoq o'sishga moyil o'simlik. Sharoit bo'lsa, avgustda ham, sentyabrda ham yangi barg, gul va ko'sak chiqarishga harakat qiladi. Ammo O'zbekistonning qizsa mavsumida kech tugilgan ko'saklar kuz sovuq'igacha ochilmay qolishi mumkin. Shuning uchun muayyan bosqichda g'o'zaga “endi bo'y va yangi shona kerak emas, mavjud hosilni yetitir” degan signal berish kerak.

Etefon o'simlik to'qimasida etilen ajratib, pishish va qarish jarayonini boshlashga yordam beradi. Keyin bargni me'yorda to'kish —

Shonalash, gullash va ko'sak tugish davrida kalsiy, magniy, bor, temir va marganes kabi mikroelementlarning ahamiyati yanada ortadi. Ayniqsa, hozirgi jazirama, garmisel, suv tanqisligi va sho'r'lanish sharoitida kremniyli o'g'itlar o'simlikni qo'llab-quvvatlash, suv yo'qotilishini kamaytirish va to'qimalarni mustahkamlashga yordam beradi. Bor esa gul va yosh ko'saklarni saqlashda muhim o'rin tutadi.

Tabiatda bir xil genetika ham turli oziqlanish sharoitida turlicha natija beradi. Masalan, ana ari va ishchi arilarning genetik asosi bir xil, ammo oziqlanish va rivojlanish sharoiti ularni butunlay boshqa vazifaga tayyorlaydi. O'simlikning ham navi o'zgarmaydi, lekin suv, ozuqa, nur va harorat uning imkoniyati qay darajada ochilishini belgilaydi. Demak, 8-10 ta bo'liq ko'sakni bitta “mo'jizaviy” preparat emas, muvozanatli oziqlantirish va to'g'ri parvarish shakllantiradi.

Uchinchisi — uzun g'o'za emas, ochiladigan ko'sak

Dalada ikki metrga bo'y cho'zgan, bargi quyuv g'o'za ko'zga chiroyli ko'rinishi mumkin. Lekin fermerga baland poya emas, terim savatiga tushadigan paxta kerak. Ortiqcha bo'yga ketgan o'simlik suv va ozuqaning katta qismini poya, barg va kech hosil bo'lgan mayda ko'saklarga sarflaydi. Pastki ko'saklarga nur kam tushadi, havo yurishi qiyinlashadi, kasallik va zararkunanda uchun qulay muhit paydo bo'ladi.

Bizning maqsadimiz g'o'za tupini taxminan 90-95 santimetr balandlikda ushlash, 10-12 ta hosil shoxi va kamida 8-10 ta bo'liq, kuzgacha ochilishga ulguradigan ko'sak shakllantirishdan iborat. Bu natijaga birgina chilpish yoki o'sishni me'yorda ushlaydigan preparat bilan erishib bo'lmaydi. Ko'chat qalinligi, qo'shqator joylashuvi, suv, azot me'yori, qator orasiga ishlov berish, mikroelementlar va zararkunanda nazorati birgalikda bo'lishi kerak. Tok va mevali daraxtning nazoratsiz o'sgan uzun novdasi ko'p ozuqa talab qilgani kabi g'o'zaning ham balandligi hosildorlikni anglatmaydi. Haqiqiy ko'rsatkich ochilgan, bo'liq va vaznli ko'sakdir.

To'rtinchisi — o'g'itni ko'p emas, o'rnida berish lozim

G'o'za ham tirik organizm. Unga qaysi ozuqa, qaysi davrda va qancha kerakligini bilmay turib, faqat o'g'it miqdorini oshirish bilan yuqori hosilga erishib bo'lmaydi. Azot o'sishga xizmat qiladi, ammo ortiqcha berilsa, g'o'zani g'ovlatadi. Fosfor ildiz va hosil organlarini, issiqqa chidamlilik, ko'sak vazni va tola sifati uchun zarur.

defoliatsiya, zarurat bo'lsa, poyani quritish — desikatsiya o'tkaziladi. Bu ishlar g'o'zani kuydirish emas, balki ozuqani mavjud ko'sakka yo'naltirish, quyosh va havoni ko'paytirish, ko'saklarning bir tekis ochilishini ta'minlash va terimni o'z vaqtida boshlashga qaratilgan. Ushbu tadbir kalendardagi bir sanaga ko'r-ko'rona bog'lanmaydi. Daladagi ko'chat soni, har tupdagi bo'liq ko'sak, havo harorati va g'o'zaning haqiqiy holati hisobga olinadi. Texnologiya shoshilishni ham, kechikishni ham ko'tarmaydi.

Oltinchisi — himoya zararkunanda chiqishidan oldin boshlanadi

O'simlikni himoya qilish deganda ko'pchilik zararkunanda ko'paygandan keyin preparat ishini tushunadi. Aslida, himoya dalani muntazam kuzatish, zararkunanda sonini sanash, foydali hasharotlarni asrash, biologik usuldan foydalanish va faqat zarurat tug'ilganda aniq ishlov berishdir.

Ko'sak qurtiga chidamli “Bt” xususiyati rasman tasdiqlangan navlar katta imkoniyat beradi. Lekin bu “endi dalaga qaramasa ham bo'ladi” degani emas. Bunday navlarda ham kuzatuv davom etadi. Eng muhimi, zararkunandada chidamlilik tez shakllanib ketmasligi uchun maydonning 10-15 foizida “Bt” xususiyati bo'lmagan himoya maydoni — refugiyaga (qochoq maydon) tashkil etiladi. Bu yerni isrof qilish emas, texnologiyani uzoq yil ishlatish uchun biologik sug'urtadir. Refugiyaga bugungi hosil bilan birga fermerning ertangi imkoniyatini ham asraydi.

Shu o'rinda bir gapni aniq aytilish kerak: “xorijiy suv” degani avtomatik ravishda “Bt” navni anglatmaydi. Chunki navning xususiyati uning kelib chiqishi bilan emas, rasmiy sertifikati bilan tasdiqlanadi.

Yettinchisi — kechikkan ishning bahosi hosilda ko'rinadi

Paxtachilikda mayda kechikishlar ham qimmatga tushadi. Ko'chat bor, ammo sanalmagan; o'g'it berilgan, ammo qachon va qancha berilgani yozilmagan; preparat sepilgan, ammo natija tekshirilmagan bo'lsa, fermer texnologiyani emas, taxminni boshqaryapti.

Shuning uchun yettinchi qonuniyat — barcha ishni bir-biriga bog'lab, o'z vaqtida bajarish kerak. Dala jurnalida nav, urug' partiyasi, ekish sanasi, sxema, ko'chat soni, sug'orish, oziqlantirish, himoya va yetilishni tadbirlari qayd etilishi zarur. Har bir qarordan oldin to'rt savol berilsin: muammo nimada, maqsad qanday, qaysi ish kerak va natijani qachon tekshiraman?

Avgustdagi kechikish sentabrda, sentabrda kechikish esa oktabrda ko'sakda ko'rinadi. Shuning

2026-yil 6-avgust, 158-son

Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz!

Bugungi tahlilali dunyoda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarga islom mohiyatini to‘g‘ri tushuntirib berish, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish har qachongidan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, yurtimizda diniy ta’lim sifatini yanada oshirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

ULUG‘ ALLOMALARNING MUNOSIB IZDOSHLARI

IMOM BUXORIY NOMIDAGI TOSHKENT ISLOM INSTITUTI ILK MAGISTRLARI TAHSILNI TAMOMLADI

Donishmandlarning “Agar sizning rejangiz bir yillik bo‘lsa — sholi eking. O‘n yillik bo‘lsa — daraxt o‘tqazing. Agar bir asrlik bo‘lsa — farzandlaringizga ta’lim-tarbiya bering” degan hikmatli gapi bor.

imom-xatiblar tanlov asosida o‘qishga qabul qilinib, ishdan ajralmagan holda 3 yil davomida tahsil oladi. Bugungi kunga qadar bu ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha 600 dan ziyod imom-xatib oliy ma’lumotga ega bo‘ldi.

Prezidentimizning 2023-yil iyun oyida Surxondaryo viloyatiga tashrif chog‘ida bergan topshirig‘i ijrosi yuzasidan 2024-2025-o‘quv yilida ta’limning uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash, tor yo‘nalishlar bo‘yicha yetuk kadrlarni tayyorlash maqsadida Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institutida magistratura mutaxassislari tashkil etilgan edi.

Joriy yilda ilk 10 bitiruvchi “Islom ilohiyoti, falsafasi va moturidiylik ta’limoti” va “Hadis ilmlari” yo‘nalishi bo‘yicha magistratura mutaxassislari muvaffaqiyatli tamomladi. Yaqinda O‘zbekiston musulmonlari idorasining katta majlislar zalida magistratlarga tantanali ravishda diplom topshirish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining diniy-ma’rifiy masalalar bo‘yicha maslahatchisi Muzaffar Komilov, Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisi Sodiqjon Toshboyev, O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy Shayx Nuriddin Xoliqnazar hazratlari, vazirlik va idoralar vakillari, tanikli ulamolar, imom-xatiblar, soha faxriylari, pedagog-o‘qituvchi va talabalar hamda OAV vakillari ishtirok etdi.

Prezident maslahatchisi Muzaffar Komilov ilk bitiruvchilarni samimiy qutlab, tegishli pul mukofoti sertifikatlarini har bir magistrga tantanali ravishda topshirdi. Muftiy Shayx Nuriddin Xoliqnazar hazratlari bitiruvchilarni



Salohiddin SHERXONOV,
O‘zbekiston musulmonlari idorasi bo‘lim boshlig‘i

Jamiyat ravnaqiga, Vatan taraqqiyotiga, xalq farovonligiga ta’lim-tarbiyachilik xizmat qiladigan boshqa biror fenomen bo‘lmasa kerak. Har bir davming o‘ziga yarasha sarmoyadorlari, tujjorlari bo‘lgan. Lekin ularning nomlari tarix sahifalarida juda kam uchraydi, ayrimlari izziz yo‘q bo‘lib ketgan. Lekin umrini sivilizatsiyalar taraqqiyotiga bag‘ishlagan mutafakkirlar, qomusiy allomalar, ma‘rifat chirog‘i ostida elini buyuk orzular, nurafshon kunlar sari yetaklagan millat oydinlari, ulamolarning nomlari asrlar osha barhayyodir.

Prezidentimiz lavozimiga saylanishi bilanoq barcha sohalar qatori diniy-ma’rifiy yo‘nalishda ham ulkan



islohotlarni boshlab berdi. Bu borada davlatimiz rahbarining 2018-yil 16-apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni muhim huquqiy asos bo‘ldi. Ushbu hujjatda qator ustuvor yo‘nalishlar, xususan, Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti va boshqa diniy ta’lim muassasalari hamda ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatini yaxshilash, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, diniy ta’lim muassasalari huzurida fuqarolarga Qur’oni karimni o‘rgatish bo‘yicha maxsus kurslar tashkil etish belgilangan.

Son emas, sifat muhim

Ilm dargohining ulug‘ vorligi uning binolari yoki talabalari soni bilan emas, balki u yerdan yetishib chiqadigan ilmi, odobli, Vatani va millatiga sidiqdildan xizmat qiladigan yetuk va salohiyatli kadrlar bilan o‘lchanadi. Yuzlab uchqunlar birgina quyoshning yirosini to‘sa olmagan singari chinakam qadr-qiyamat shonda emas, sifatdadir. Yangi O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus islom ta’lim muassasalari faoliyatida ham asosiy mezon ta’lim sifati, ilmiy salohiyat, ma’naviy tarbiya va jamiyatga munosib xizmat qiladigan mutaxassislarni voyaga yetkazishda.

Mustaqillikning dastlabki chorak asrida O‘zbekiston musulmonlari idorasi tizimida 9 ta o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi va Toshkent islom instituti faoliyat yuritgan bo‘lsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017-yilda Buxoro shahrida Mir Arab oliy madrasasi, 2018-yilda Samarqand viloyatida Hadis ilmi maktabi, 2020-yilda Termiz shahrida Imom Termiziy o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi, 2024-yilda Imom Termiziy nomidagi islom instituti tashkil etildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston musulmonlari idorasi tizimida 4 ta oliy, 10 ta o‘rta maxsus islom ta’lim muassasasi (shundan ikkitasi ayol-qizlarga ixtisoslashgan) faoliyat ko‘rsatmoqda. Ularda tahsil olayotgan ikki yarim mingdan ziyod talabaga 500 ga yaqin professor-o‘qituvchi saboq berib kelmoqda.

Diniy soha xodimlarining asosiy qismini tashkil etadigan imom-xatiblarining bilim va malakalarini yanada oshirish, o‘rta maxsus diniy ma’lumotga ega imom-xatiblarni oliy diniy ma’lumotli kadrlar bilan almashtirish maqsadida 2019-yilda Toshkent islom institutida modul ta’lim tizimi joriy qilindi. Mazkur ta’lim tizimida 5 yillik mehnat stajiga ega bo‘lgan

IJTIMOIY FAOL, TASHABBUSKOR VA RAQOBATBARDOSH: zamonaviy pedagoglik asoslari

Yil o‘qituvchisi – 2026



USHBU MAQOLANI
QORAQALPOQ TILIDA
HAM O‘QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER
QILING!

pul mukofoti bilan taqdirlanadi. Qalbida hayajon bilan turgan muallimlarni sinchkov kuzatdik: shiddati, bilimi, kasbiy faoliyatidan, avvalo, o‘zi mamnun.

O‘qituvchilarning bugun jamiyatdagi o‘rmi, kasbiy maqomi hamda oyliq yildan yilga ortib bormoqda. Soha vakillariga ko‘rsatilayotgan ana shunday yuksak e’tibor bejiz emas, albatta. Zero, ustozlar ma‘rifat bog‘ining bog‘boni, uning nihollari yangi O‘zbekistonning kelajagidir.

Yoshlar tarbiyasi va ta’limi sifatini oshirishda oila, maktab va mahalla hamkorligi strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ustozlarning “Oila — mahalla — maktab” hamkorligidagi ishlari alohida ahamiyatga ega. Shu bois, ishtirokchilar ushbu tamoyil asosida hamkorlik yuzasidan mahalla faollari va yoshlar bilan qilgan tizimli ishlarni slaydlarda namoyish etdi. Xususan, joriy yil institutimiz tashabbusi bilan Qashqadaryo viloyati Kitob tumanida “Ota-onalar akademiyasi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Uning ochilishi doirasida “Mahalla, oila va maktab integratsiyasi asosida yoshlar tarbiyasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik modeli” mavzusida keng qamrovli o‘quv seminari o‘tkazildi.

Ko‘tarinki ruh va yuqori kayfiyatda o‘tkazilgan tanlovda bugun bilimi va malakali kadrlarni shakllantirishga qaratilgan tizim mamlakatning iqtisodiyoti, ijtimoiy hayotini o‘zgartirishga qodir mexanizm ekanini anglatdi. Bilim kapital, yuksalish, o‘sish va rivojlanishdir. Shuningdek, dunyo yoshlari turli mafkuraviy ta’sirlar, axborot xurujlari va ma’naviy tahdidlar bilan yuzma-yuz kelayotgan murakkab bir sharoitda milliy tarbiya masalasi nafaqat pedagogik, balki

ijtimoiy, siyosiy va ma’naviy xavfsizlik omili sifatida ham muhim.

Milliy o‘quv dasturining ishlab chiqilishi tarbiya pedagogikasi rivojida alohida bosqich bo‘ldi. Dasturda fanlararo integratsiya, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, innovatsion metodlardan foydalanish va tarbiyaviy maqsadlarning har bir fan mazmuniga singdirilishi ustuvor yo‘nalish etib belgilangan. Ushbu yondashuv o‘quvchining bilim olish bilan birga ma’naviy, axloqiy va fuqarolik fazilatlarini ham rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayoniga yangi imkoniyatlar olib kirdi. Elektron darsliklar, masofaviy ta’lim

platformalari, multimedia vositalari va sun’iy intellektga asoslangan ta’lim resurslari pedagogik faoliyatning ajralmas qismiga aylandi. Shu ma’noda, ta’lim islohotlari doirasida pedagog kadrlarning kasbiy salohiyatini oshirish ustuvor yo‘nalish sifatida e’tirof etildi. O‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimi takomillashtirildi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni egallash, innovatsion metodlarni qo‘llash va tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishga qaratilgan o‘quv dasturlari ishlab chiqildi.

Qisqasi, yangi O‘zbekiston sharoitida ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirishning asosiy maqsadi milliy qadriyatlarga hurmati baland, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega, ijtimoiy faol, tashabbuskor va raqobatbardosh shaxsni voyaga yetkazishdan iborat. Mazkur islohotlar natijasida tarbiya jarayoni shaxsning har tomonlama rivojlanishini ta’minlovchi, zamonaviy pedagogik yondashuvlarga tayangan yaxlit tizimga aylandi.



Xolboy IBRAIMOV,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti direktori, pedagogika fanlari doktori, akademik

Shu kunlarda mana shu mexanizmning bir qismi bo‘lgan yirik tadbirning guvohi va ishtirokchisi bo‘ldik. Joriy yil iyulning so‘nggi kunlarida mamlakatimizning barcha viloyatida “Yil o‘qituvchisi — 2026” tanlovi bo‘lib o‘tdi. Ko‘tarinki ruhda, shaffof va adolatli muhitda o‘tgan tanlovda institutimiz jamoasi bilan faol ishtirok etdik. Tanlov ikki bosqichdan iborat bo‘lib, birinchisida pedagoglarning shaxsiy rivojlanish va ma’naviy-ma’rifiy sohada o‘z ustida ishlashi besh mezon asosida aniqlandi.

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan ilk bora o‘tkazilayotgan mazkur tanlov nafaqat ta’lim tizimida, balki butun jamiyatimiz hayotida o‘ziga xos voqeaga aylandi. Yurtimizning 208 tuman va shahridan saralangan iqtidorli 208 pedagogning har biri BHMning 1400 baravari miqdoridagi

ISHONCH VA E’TIBOR SAMARASI xalqaro maydondagi yuqori natijalarda namoyon



Muhammad EGAMBERDIYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi magistratura bosqichi tinglovchisi

Ta’lim odimlari

Har bir mustaqil davlatning eng katta boyligi, avvalo, ilmi, vatanparvar va aniq maqsadli yoshlardir. Mamlakatimizda ham navqiron avlod uchun yaratilayotgan imkoniyatlar, ularni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli tashabbuslar, zamonaviy maktablar, ixtisoslashtirilgan ta’lim maskanlari, xalqaro ta’lim dasturlari va rag‘batlantirish tizimi natijasida yoshlar o‘z oldiga dunyo miqyosidagi marralarni qo‘ya oladigan avlod sifatida kamol topmoqda.

Buni joriy yilgi xalqaro fan olimpiadalari natijasi ham yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, Kolumbiyada o‘tkazilgan 56-xalqaro fizika olimpiadasida O‘zbekiston terma jamoasi tarixiy natijani qayd etdi. Ilk bor ikki o‘quvchimiz — Asilbek Jumanazarov va Muhammad Abdumalikov kumush, yana ikki bilimdonimiz — Elbek O‘roqov hamda Hasan Kamolov bronza medalni qo‘lga kiritdi. Javohir Oqnezarov esa faxriy e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Shuningdek, biologiya yo‘nalishida yurtimiz yoshlari munosib natijalarga erishdi. Litvaning Vilnyus shahrida o‘tkazilgan 37-xalqaro biologiya olimpiadasida Prezident

maktabi o‘quvchilari Murodbek Latipov, Orzugul Muxtorova va Nursulton Ashiraliyev bronza medalga sazovor bo‘lish barobarida mamlakatimiz biologiya maktabi salohiyatini xalqaro miqyosda yana bir karra namoyon qildi.

Xitoy mezbonlik qilgan 67-xalqaro matematika olimpiadasida ham olovqalb yoshi intellektlarimiz navbatdagi muvaffaqiyatni qo‘lga kiritdi. Elshod O‘ralov va Dostonbek Rahmonqulov kumush medalni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, Azizbek Mamajonov, Elbek Zohidjonov hamda Rasulbek G‘afforov bronza medal bilan taqdirlandi. Dunyodagi eng murakkab va nufuzli fan musobaqalaridan biri hisoblangan matematika olimpiadasida qayd etilgan bunday natijalar yurtimizda aniq fanlarni rivojlantirish yo‘lidagi tizimli ishlarning amaliy ifodasidir.

Kimyo fani bo‘yicha erishilgan yutuqlar esa alohida e’tirofga loyiq. 58-xalqaro kimyo olimpiadasida terma jamoamiz ishtirokchilari yuqori natijalarni qayd etgani quvonarli voqea. Rayhona To‘ymurodova oltin medalni qo‘lga kiritgan bo‘lsa, Jasur Mustafayev, Azizmuhamed Hafizov va Mirjalol Homidjonov kumush medal bilan taqdirlandi. Jamoaning barcha a’zolari sovrindor bo‘lishi yurtimiz ta’lim tizimining izchil rivojlanayotganidan dalolat.

Bunday yutuqlar ortida faqat iste’dod emas, mehnatni qadrlash tamoyili ham mujassam. Davlatimiz rahbarining tegishli qaroriga muvofiq, nufuzli xalqaro fan olimpiadalarida g‘olib bo‘lgan o‘quvchilar va ustozlari katta miqdordagi pul mukofoti bilan rag‘batlantirilmoqda. Oltin medal uchun bir milliard so‘mdan ortiq, kumush va bronza medallar uchun ham salmoqli mukofotlar belgilangan. Bundan tashqari, g‘oliblarni tayyorlagan o‘qituvchilarning malaka toifasi bir pog‘ona oshirilishi ilimga hurmat va ustoz mehnatiga yuksak e’tiborning yaqqol ifodasidir.

Bugun mamlakatimiz yoshlari uchun imkoniyatlar ko‘lami benihoya keng. “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali dunyoning eng nufuzli universitetlarida tahsil olayotgan o‘zbekistonlik talabalar tizimidagi muvaffaqiyatlar ham ana shu ishonch va e’tibor samarasi. Jamg‘arma vakillari ta’kidlaganidek, yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlar ularning jahon miqyosida raqobatbardosh mutaxassis bo‘lib yetishishiga xizmat qilmoqda.

Jadid bobolarimiz orzu qilgan bugungidek ziyoga to‘la maktablarda o‘qiyotgan, laboratoriyada yangiliklar ustida tajriba o‘tkazayotgan har bir o‘g‘il-qiz etangni kunning olim-u muhandisi, shifokori, ustoz, xullas, el koriga yaraydigan munosib kadrlar bo‘lib yetishmoq‘iga shubha yo‘q.



Har bir xalq o'zining olis o'tmishi, tarixiy ildizlari, otobobolari bosib o'tgan yo'llarni yaxshi bilishi, bu jarayon qanday kechganini anglashi, asrlar, davrlar sinovidan o'tgan urf-odat va an'analarni asrab-ayaylab, kelajak nasllarga yetkazishi lozim. Bunga amal qilmagan xalqlar tarix sahnasidan tushib qolganiga misollar ko'p. Chunki tarixiy xotiraning unutilishi milliy taraqqiyot, erkin hayot yo'li uchun kurashlarni zaiflashtiradi. Hamma zamonlar uchun ham muhim bo'lgan ushbu saboqni unutmaslik zarur.



Ahmadjon MELIBOYEV, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

Insoniyat necha ming yillardan beri tinch-totuv, emin-erkin, o'z xohish-istagiga ko'ra yashashga intiladi. Har bir xalq milliy taraqqiyotga yuz tutar ekan, tabiiyki, shu niyat yo'lida o'ziga ma'qul rejalar tuzadi. Men ko'rmagan ro'shniolklarni farzandlarim ko'radi, ular mendan ko'ra baxtli bo'ladi, deya ertangi kunga umid ko'zi bilan qaraydi. Bu umid avlodlardan avlodlarga o'tadi. Turmush, yashash tarzi yaxshilangani sari insonning ma'naviy-maishiy istagi ortib boradi. Bu jarayon hech qachon to'xtamaydi. Kurash davom etadi.

Muttasil o'zgarib borayotgan, goh o'zini o'zi tushunmay ham qolayotgan dunyoning bir xususiyati shundaki, bugungi murakkab geosiyosiy, iqtisodiy, ekologik muammolar faqat bir mamlakat yoki millatga taalluqli emas. Ularni faqat birga, bamaslahat, hamma tomonning manfaatlaridan kelib chiqqan holda hal qilish mumkin.

Shu bois, O'zbekiston Prezidentining dunyo va mintaqa davlatlari bilan yaxshi qo'shnichilik, samimiy do'stlik, qardoshlik, manfaatli hamkorlikni har tomonlama rivojlantirish, yangi hamkorlar hisobiga harakat doirasini kengaytirishga doir siyosati



Nortoji XALIBOYEVA, Farg'ona viloyati qirg'iz milliy madaniy markazi raisi, "Shuhrat" medali sohibi

Keyingi o'n yillikda bu yaqinlik yanada mustahkamlanib, o'zaro bordi-keldimiz, do'stligimiz,

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Cho'iponotadagi norasmiy maslahatlashuvida qabul qilingan hujjatlar, bu harakatga Ozarbayjonning ham qo'shilishi bugun dunyoning o'ta jiddiy e'tiborida turgan mintaqamiz ijtimoiy-siyosiy hayotida favqulodda muhim voqea ekanini ta'kidlash zarur.



Do'stlik — chegara bilmas

MUSHTARAK MAQSADLAR SARI...

hamda bu sa'y-harakatlarning amaliy natijasi mamlakatimizni yaqin qo'shnilar bilan birga jahon hamjamiyatiga ham yangi ijtimoiy-ma'naviy qiyofada namoyon etdi. Ulug' allomalar bu yorug' olamda yashashdan maqsad — baham ko'rmoqlik, degan ekan. Buning ma'nosi shuki, har bir inson, har bir davlat o'ziga qanday ro'shniolklarni tilasa, ulug' maqsadlarni orzu qilsa, boshqalarga ham tilashii, ravo ko'rishi kerak ekan. Davlatimiz rahbari ayni shu yo'lni tanladi. O'zbekiston yon qo'shnilarining kuchli bo'lishidan, barqaror rivojlanishidan manfaatdorligini ochiq e'tirof etdi.

Hech bir kishi bu yorug' olamga boshqa bir insonga zug'um qilish, uyini buzish, yo'lini to'sish, boyliklarini egallab olish uchun kelmaydi. Ammo hayot deganlari o'z in'omlarini odamlarning niyati, imon-e'tiqodi, ezgu amallariga qarab taqsimlaydi chog'i, orzularga yetishda kimdir ilgariab ketadi, kimdir qismat chorrahalarida taraddudlanib qoladi. Kutilgan-kutilmagan xatoliklar yuzaga keladi.

Davlatimiz rahbari ayni shu holatlarga alohida e'tibor berdi. Milliy taraqqiyotga erishishning turli yo'llaridan borayotgan mintaqamiz mamlakatlar bilan yaxshi qo'shnichilik aloqalarini tiklashda har bir tomonning ikkinchi tomon uchun samimiy do'st, ishonchli hamkorga aylanishini o'ylab, bu borada birinchi qadamni qo'ydi. O'zbekiston misolida bu ishonchning qat'iy va bardavomligini amalda namoyish etdi.

Inson bu yorug' olamga faqat yeb-ichish, chiroyli kiyinish, rohat-farog'atda yashash uchun kelmaydi, albatta. Dunyoda shunday qudratli mamlakatlar borki, yer osti va yer usti boyliklari, kuch-qudrati behisob va



beqiyos. Ammo hayotda inson qalbi, ong-tushunchasi, ma'naviy olami, imon-e'tiqodi, insofdiyanati degan tushuncha va tuyg'ular ham borki, ular oldida har qanday boylik, behisoblik ojiz bo'lib qolishi mumkin. Shunday bo'lmoqda ham. Siyosiy, iqtisodiy nizolarni qurol kuchi bilan hal qilish harakatlari kelishmovchiliklarni battar chigallashtirayotganiga bugun barchamiz guvoh bo'lib turibmiz.

Insonbu yorug' olamganimamaqsaddakeladi, qisqa muddat yashashning ma'no-mohiyatini qanday tushunmoq kerak? Bu savollarga javob topish oson emas. Bunga erishish uchun



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

hayot qozonida bir umr qaynash, olis moziy va kelajakka mushohada bilan safar qilish lozim. Ammo tilimiz, ong-shuurimizda shunday so'z va iboralar borki, ular biz ang-lamoqchi bo'layotgan mohiyatni ko'zgudek aniq-tiniq namoyon etib beradi.

Ha, chindan ham yashamoqlik baham ko'rmoqlikdir. Ya'ni moddiy va ma'naviy boyliklar hazratlari inson, uning buyuk sarhisobga qadar tug'ilajak zurriyodlari uchun yaratilgan. Ulardan hamma bahramand bo'lishga haqli. Har qultum suv, har siqim tuproq, har nafasli havo — umumiy boylik. Shunday ekan, inson bu ilohiy ne'matlardan foydalanishda, avvalo, ularni isrof qilmastigi, asrab-ayaylashi, bir-biri bilan baham ko'rishi, o'zi bilan birga boshqalarning ham ehtiyojini o'ylashi zarur. Ulug'larning "Hamjihat yashanglar, bir-biringizdan xabardor bo'linglar, rizq ulashinglar, kengga keng, torga tor dunyo bu", degan o'gitlaridan anglanadigan ulug' ma'no shu.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Cho'iponotadagi norasmiy maslahatlashuvida qabul qilingan hujjatlar, bu harakatga Ozarbayjonning ham qo'shilishi bugun dunyoning o'ta jiddiy e'tiborida turgan mintaqamiz ijtimoiy-siyosiy hayotida favqulodda muhim voqea ekanini ta'kidlash zarur.

Tadbiridan bir kun oldin O'zbekiston va Qirg'iziston o'rtasida Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi shartnomaning

imzolangani qadim o'zanlarga qaytishning noyob belgisi. Oqqan daryo oqmay qolmas, deganlaridek, bu kelishuv ikki mamlakat o'rtasida necha davrlar mavjud bo'lgan birlik, ahillik, do'st-qadrdonlikni avvalgidan ham kuchaytirishga xizmat qilishi, ikki o'rtadagi o'zaro ishonch ruhini mustahkamlashi shubhasiz. Donolar "Agar odamlar bir-birini



hamisha to'g'ri tushunsa edi, hech qanday muammo bo'lmasdi", deydi.

Bundan atigi bir hafta avval Bishkek shahrida taniqli siyosatshunos Qudratilla Rafiqovning "Shavkat Mirziyoyevning yo'li" kitobining qirg'iz tilida chop etilishiga bag'ishlangan marosimda biz — o'zbekistonlik ziyolilar qirg'iz jamoatchiligi: davlat va jamoat arboblari, olimlar, ijodkorlar, yoshlar O'zbekistonda

kechayotgan muhim ijtimoiy jarayonlar, havasli o'zgarishlarga g'oyat qiziqayotganiga guvoh bo'ldik. Keyingi yillarda ikki mamlakat ijodkorlari, madaniyat va san'at xodimlari o'rtasidagi aloqalar kuchaygani shundoqgina sezilib turibdi. "Jahon adabiyoti", "Sharq yulduzi" va "Ala too" jurnallarida o'zbek va qirg'iz adiblarning asarlari muntazam e'lon qilinmoqda. Olamga mashhur "Manas" eposi o'zbek tilida bir necha marta (so'nggi nashri Zuhridin Isomiddinov tarjimasida) chop etildi, qirg'iz xalq yozuvchisi Tugelboy Sidiqbekovning mashhur "Ko'k yalov" romani, xalq yozuvchisi Sulton Rayevning roman, qissa, hikoya va pyesalari, Marqaboy Aamatov, Abibulla Pazilov, Akbar Risqul, Qiyaal Taaji, Abdimomun Qalbayevning she'r va hikoyalari

o'zbek tiliga o'g'irilib, o'quvchilar qo'lga yetib bordi. O'zbekiston xalq yozuvchisi Xayriddin Sultonning yangi asari "Ala too" jurnalida e'lon qilindi. Mamlakatimizdagi ellikta maktabda darslar qirg'iz tilida o'tilmoqda. Mezbonlar bu ma'lumotlardan mamnun bo'ldi, "Alpomish", "Go'ro'g'li" dostonlarimizni qirg'iz tiliga o'g'irish niyatlari borligini ma'lum qildi.

Yusuf Bolosog'un nomidagi Qirg'iz davlat universiteti va O'zbekiston Milliy universiteti o'rtasida talabalar almashinuvi tajribasi yo'lga qo'yilgani har jihatdan e'tiborga molik. O'zMUda atqliq adib Chingiz Aytmatov hayoti va ijodini o'rganishga doir ekspozitsiya faoliyat yuritayotgani, bu yerda ko'plab noyob hujjatlar saqlanayotgani haqida fikrlashdik. Aliqlik Osmonov nomidagi davlat kutubxonasiga o'zbek tilida chop etilgan kitoblarni tuhfa qildik.

Suhbatlar chog'i bunday aloqalarni yanada rivojlantirish, xususan, Zahiriddin Bobur nomidagi O'sh davlat o'zbek akademik teatri uchun kadrlar tayyorlash, O'zbekistondagi qirg'iz va Qirg'izistondagi o'zbek maktablari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ikki mamlakatning tegishli vazirlarliklari mutaxassislarining uchrashuvini tashkil etish maqsadiga muvofiq qilib aytib o'tildi.

Safarimiz yakunida ulug' adib Chingiz Aytmatov dafn etilgan "Ata Beyit" memorial kompleksida bo'lib, sobiq tuzum davridagi qonli repressiya qurbonlarini yodga oldik. Ushbu ziyoratgoh rahbari, tarix fanlari doktori Bolot Abduraxmanov bizga 1937-1953-yillari Qirg'izistonda qatag'on qilingan mingga yaqin o'zbek xotirasiga bag'ishlangan kitobni sovg'a qildi.

1937-1953-yillari O'zbekistonda sovet totalitar tuzumining ommaviy siyosiy qatag'on natijasida qariyb 100 ming kishi repressiya qilingan, ulardan 13 mingdan ortig'i otib tashlangan. Taniqli davlat arboblari, ijodkor ziyolilari, diniy ulamlar repressiyachilarning asosiy nishoni bo'lgan. Nurga ming oila Sibir, Qozog'iston va Uralga surqun qilingan. Keyingi yillarda O'zbekiston Oliy sudi nohaq jabrlangan yuzlab yurtdoshlarimizni oqladi.

Bu mash'um repressiya Qirg'izistonda ham ayovsiz o'tkazilgan. Bugun ikki mamlakat tarixchi olimlari, adabiyotchilari nohaq qamalangan xotirasini tiklash, ilmiy-ma'rifiy merosini o'rganish, yangi avlod tarbiyasida ulardan foydalanish borasida ibratli ishlarni qilmoqda. Cho'iponotada imzolangan Ittifoqchilik shartnomasi ikki mamlakat o'rtasidagi iqtisodiy, ilmiy, adabiy-madaniy aloqalarga ham yangicha shiddat berishi shubhasiz.

HAMJIHATLIK RISHTASI

O'zbek va qirg'iz xalqlarini bir-biriga bog'lovchi rishtalar juda ko'p. Bir ariqdan suv ichamiz, quda-andali qarindoshlarmiz, ming yillik qo'ni-qo'shnimiz, bozorimiz ham, mozorimiz ham bir.

hamkorligimiz kuchaymoqda. Prezidentlarimizning o'zaro hamjihatligi, oqilona siyosati tufayli xalqlarimiz bir maqsad yo'lida birlashdi. Chegaralardan o'tish tartibi soddalashtirildi, qulayliklar yaratildi. Prezidentimizning Qirg'iz Respublikasiga davlat tashrifi davlatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqdi. Zero, tashrif doirasida o'tkazilgan oliy darajadagi muzokaralar yakunida Ittifoqchilik munosabatlari to'g'risidagi muhim shartnoma imzolandi. Bu tarixiy voqea nafaqat ikki davlat, balki Markaziy Osiyo mintaqasi birdamligi, hamjihatligi va hamkorligini yangi bosqichga olib chiqishda muhim o'rin tutadi.



Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning I darajali "Manas" ordeni bilan taqdirlangani xalqlarimiz

o'rtasidagi ko'p asrlar do'stlik va yaxshi qo'shnichilik rishtalarini mustahkamlashga intilishning amaliy ifodasi bo'ldi.

Mamlakatimiz yuksak marralarni zabt etmoqda, bunyodshimiz teng huquq va imkoniyatlardan foydalanib, xalqxo'jaligi va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, ilm-fan, madaniyat, ijtimoiy soha, ijroiya, sud-huquq, mudofaa idoralarida samarali faoliyat yuritmoqda. Viloyatdagi beshta maktabda qirg'iz tilida ta'lim beriladi. Millat vakillarining ijod, ilm va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyatlar yaratilgan.

Viloyat qirg'iz milliy madaniy markazi tashabbusi bilan Farg'ona, Quvasoy, Rishton, Qo'shtepa, Toshloq, Oltiariq tumanlarida do'stlik festivallari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv va muloqotlar o'tkazib kelinmoqda. Shuningdek, joylarda qirg'iz milliy bayramlariga bag'ishlangan tadbirlar ham muntazam tashkil etiladi. "Tumarim" etnografik folklor badiiy jamoasi faoliyat yuritadi. Taniqli san'atkorlar qirg'iz va o'zbek tillarida ijod qilib, milliy va umumxalq bayramlari, ijtimoiy-siyosiy tadbirlarda faol ishtirok etmoqda.

Markazimiz tomonidan har yili aprel oyida 11 yoshli bolalar o'rtasida Manas aytishuv musobaqasini o'tkazish va g'oliblarni taqdirlash yaxshi an'anaga aylangan.

Qisqasi, turli millat va elat vakillari emin-erkin yashab kelayotgan O'zbekistonimizda millatlararo do'stlik gullab yashnasin. O'zbek va qirg'iz xalqlarining qardoshlik, yaxshi qo'shnichilik, do'stlik rishtalari esa yanada mustahkamlanib, davlatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik yangi bosqichda taraqqiy etib boraversin.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalar tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

Qabulxona: (71) 233-56-33
E'lonlar bo'limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-846.
29345 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Avazbek Xudoyqulov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy